

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA RAQAMLI PLATFORMALARNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ergashov Sherzod Abduxoliq o'g'li

Menejment va Zamonaviy texnologiyalar universiteti,

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

@SherzodErgashov0109

Abdullayev Firdavs Odiljon o'g'li

Menejment va Zamonaviy texnologiyalar universiteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

@Abdullayev_007_009

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida raqamli platformalarning ahamiyati, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda O'zbekiston sharoitida rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotning jadal sur'atlarda kengayib borishi, elektron tijorat, onlayn xizmatlar va moliyaviy texnologiyalar sohasida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkorlik, raqamli platforma, elektron tijorat, innovatsiya, O'zbekiston–2030 strategiyasi.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va raqobatning tobora kuchayishi, korxonalarga samarali ishlash va qarorlar qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish zaruratini taqozo etmoqda. Buning uchun katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) dan foydalanish, ya'ni raqamlashtirish tizimlari orqali ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tahlil qilish ayni zamonning dolzarb va muhim vazifasiga aylandi¹. Ma'lumotlar va texnologiyalar asosida biznes modellarini takomillashtirish, yangi imkoniyatlar va biznes jarayonlarini optimizatsiya qilish korxona uchun muvaffaqiyatli faoliyat olib borishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Shuning uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali foydalanish, korxonalarni raqamlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar iqtisodiy tizimlarning asosiy drayveriga aylanmoqda. Internet tarmog'ining kengayishi, sun'iy intellekt, blokcheyn, "Big Data" va mobil texnologiyalarning rivojlanishi nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik biznes subyektlari uchun ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Kichik biznes - har qanday milliy iqtisodiyotning muhim segmenti bo'lib, bandlik, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu bois

¹ Jahon banki, "Raqamli iqtisodiyot hisoboti 2024", Vashington, 2024 yil.

BCG (Boston Consulting Group), "Raqamli transformatsiya: davlatlar tajribasi", 2024 yil

raqamli platformalar orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston–2030 strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida raqamli iqtisodiyotga o'tish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, elektron to'lovlar, onlayn savdo, raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Biroq kichik tadbirkorlik subyektlarining ushbu jarayonlarga moslashuvi hali ham sekin kechmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada kichik biznesda raqamli platformalarning rivojlanish holati, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlari tizimli tahlil qilingan.

Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish, taqsimot, almashinuv va iste'mol jarayonlarining yangi bosqichi bo'lib, u ma'lumotlar oqimi, onlayn tranzaksiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlariga tayanadi. Raqamli platformalar esa iqtisodiy subyektlar o'rtasida o'zaro aloqani tashkil qiluvchi onlayn tizimlar bo'lib, ular tovar, xizmat yoki ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi.

XXI asrning ikkinchi yarmida raqamli texnologiyalar taraqqiyoti har bir sohaga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) tushunchasi va texnologiyalarining shakllanishi hamda amaliyotga keng joriy etilishi biznes muhitda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Mazkur texnologiyalar korxonalarda tezkor, aniq va tahliliy qarorlar qabul qilish, xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, bozor ehtiyojlariga moslashuvchanlik darajasini yaxshilashda asosiy vositaga aylandi. Big Data - bu an'anaviy ma'lumotlar bazalari imkoniyatlaridan tashqari yirik hajmdagi, turli formatdagi, tez o'zgaruvchan va real vaqt rejimida oqib keluvchi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tahlil qilish va undan foyda olish jarayonidir. Bu turdagi ma'lumotlar korxonaning ichki (CRM, ERP, IoT qurilmalaridan olingan) va tashqi (ijtimoiy tarmoqlar, veb trafik, mijozlar fikri) axborot manbalaridan shakllanadi.

Raqamlashtirish Yevropa Ittifoqida yaqinlashib kelayotgan muhim tendentsiyadir. Koronavirus pandemiyasi Evropada iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini tezlashtirishga yordam berdi. Ushbu pandemiyaga javob sifatida, Evropa Ittifoqidagi firmalarning 46 foizi raqamli bo'lish uchun harakat qilganliklarini ma'lum qilishdi. Niderlandiya boshqa beshta davlat bilan birgalikda EIBIS korporativ raqamlashtirish indeksiga ko'ra Yevropa Ittifoqining yetakchilaridan biri hisoblanadi. Bu tendentsiya Evropadagi korporatsiyalarda allaqachon sezilmoqda². Siemens 2023 yil iyun oyida avtomatlashtirish, barqarorlik va raqamlashtirishga 2 milliard evro sarmoya kiritish uchun investitsiya strategiyasini taqdim etdi. Bu sarmoya hatto 2,5 milliard evrogacha oshishi mumkin.

Kichik biznes uchun raqamli platformalar quyidagi afzalliklarni beradi: - bozorga

²file:///C:/Users/ADMIN/Desktop/PHD%20ishi/1.Perevodi_The%20Influence%20of%20Digitalization%20on%20Industrial%20Startups%20in%20the%20Netherlands%20(1).pdf

kirish xarajatlarini kamaytiradi; - mahsulot va xizmatlarni keng auditoriyaga taklif etish imkonini yaratadi; - moliyaviy operatsiyalarni soddalashtiradi; - marketing, reklama va mijozlar bilan aloqa jarayonlarini raqamlashtiradi.

Shu bilan birga, platformalar iqtisodiyotda yangi raqobat muhitini ham shakllantiradi. Ular an'anaviy biznes modellarini o'zgartirib, qiymat zanjirini raqamli maydonga olib chiqmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarga moslashuvi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali", "my.soliq.uz", "online.mf.uz" kabi elektron tizimlar tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirdi. Shu bilan birga, "Uzum Market", "ZoodMall", "Glotr.uz", "Asaxiy.uz" kabi mahalliy e-commerce platformalari kichik tadbirkorlar uchun onlayn savdo imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Raqamli transformatsiya kichik biznes uchun nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki raqobatbardoshlikni ham ta'minlaydi. Masalan, 2024-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, raqamli platformalardan faol foydalanuvchi kichik korxonalar o'rtacha 25–30% yuqori daromadga ega bo'lgan. Biroq bu natijalar barcha tarmoqlar uchun bir xil emas: xizmatlar sohasi raqamli yechimlarga tezroq moslashgan bo'lsa, ishlab chiqarish segmentida bu jarayon sekinroq kechmoqda.

O'zbekiston–2030 strategiyasida raqamli iqtisodiyot milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, unda: "Raqamli biznes ekotizimini rivojlantirish"; "Elektron savdo va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish"; "Texnoparklar va startaplarni qo'llab-quvvatlash"; "Internet infratuzilmasini 100 foiz aholiga yetkazish" kabi vazifalar belgilangan.

Kichik biznesda raqamli platformalarning rivojlanish istiqbollari quyidagi omillarga tayanadi: Raqamli infratuzilmani takomillashtirish - keng polosali internet, onlayn to'lov tizimlari, axborot xavfsizligini ta'minlash; Raqamli savodxonlikni oshirish - tadbirkorlar uchun o'quv dasturlari, treninglar va grantlarni tashkil etish; Platformalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish - subsidiyalar, soliq imtiyozlari va kredit liniyalarini joriy etish; Mahalliy startaplarni rag'batlantirish - "IT Park", "InnoFund" kabi dasturlar orqali innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishni tashkil etishdan iborat.

Infratuzilma muammolari. Ayrim hududlarda internet tezligi past. Hukumat va xususiy sektor hamkorligida infratuzilmani yaxshilash.

Moliyaviy resurslar yetishmovchiligi. Kichik biznes sohalari uchun imtiyozli kreditlar berish orqali raqamli platformalarga kirishni yengillashtirish.

Bilim yetishmovchiligi. Raqamli savodxonlikni oshirish uchun davlat dasturlarini yo'lga qo'yish.

Raqamli xizmatlar va platformalar kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim asos hisoblanadi. Ular orqali tadbirkorlar nafaqat mahalliy bozorda,

balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash uchun davlat siyosati, xususi sektor tashabbuslari va innovatsiyalarga ishonch muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar

Raqamli platformalar kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ular bozorlarga kirishni osonlashtiradi, raqobatni kuchaytiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi. O'zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kichik biznesning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kelajakda quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq: Hududlarda internet tarmog'ining sifatini oshirish va tariflarni arzonlashtirish; Kichik tadbirkorlar uchun raqamli treninglar tizimini kengaytirish; Mahalliy IT-platformalarni xalqaro bozorga integratsiya qilish; Raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni (subsidiyalar, grantlar) kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023-yil 11-sentabr). *O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida farmon*.
2. Statistika agentligi (2024). *Raqamli iqtisodiyot va elektron savdo bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.
3. IT Park Uzbekistan. (2024). *Yillik faoliyat natijalari to'plami*.
4. World Bank / IFC. (2020). *E-commerce in Emerging Markets: Opportunities for SMEs*.